<b>Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li</b>	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
<b>Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li</b>	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
<b>Ahrorov Farhod Baxriddinovich</b>	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashirishdan foydalanish.....	1208
<b>Muhitdinov Asror Akobirovich</b>	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari.....	1213
<b>Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li</b>	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari.....	1219
<b>Tursunov Nozimjon Nosirovich</b>	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
<b>Saida Yuldasheva</b>	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan.....	1227
<b>Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li</b>	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni.....	1231
<b>Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna</b>	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
<b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>	



Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
<b>Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna</b>	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан .....	1250
<b>Эркинов Шахзод Баходир ўғли</b>	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
<b>Ikramov Ravshan Amanbayevich</b>	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish .....	1261
<b>Azadova Bonuposhsha Alisher qizi</b>	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
<b>Sadikov Iskandar Gayratovich</b>	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbaevich</b>	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
<b>Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	1281
<b>Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna</b>	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati .....	1284
<b>Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich</b>	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari .....	1289
<b>Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna</b>	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari.....	1294
<b>Berkinov Bazarbay Berkinovich</b>	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollarini ta'minlash omillari.....	1300
<b>X. I. Boyev</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi.....	1305
<b>Saipova Dilnoza Shuxratovna</b>	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1310
<b>Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li</b>	
Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishning muhimligi.....	1315
<b>Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li</b>	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish.....	1320
<b>Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad</b>	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1324
<b>Boltaboyev Murodbek Aybekovich</b>	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1329
<b>Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich</b>	
Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.....	1333
<b>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</b>	
O'zbekiston Respublikasida "Iqtisodiy erkinlik indeksi"ning davlat aralashuvi darajasi yo'nalishida yuqori natija qayd eta olish imkoniyatlari va buning oqibatlari .....	1337
<b>Qoraboyev Bobur Umarovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li</b>	
Improving the Participation of Joint-Stock Companies in the Capital Market.....	1343
<b>Muminov Shohjahon Suyun ugli</b>	
Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1347
<b>Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li</b>	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1353
<b>Bobojonov Baxrombek Ruzimovich</b>	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari .....	1359
<b>Arifxanova Xabiba Shuxratovna</b>	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1365
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich</b>	



# SOLIQ VA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINING DOLZARB MASALALARI

Arifxanova Xabiba Shuxratovna

Toshkent Iqtisodiyot Universiteti tayanch doktranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalqaro va milliy qonunchilikka ko'ra asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi va soliq hisobi o'rtasida, shuningdek, asosiy vositalar hisobida buxgalteriya hisobining milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o'rtasidagi farqlari yoritilgan. Shu bilan bir birga, maqolada asosiy vositalar hisobini unifikatsiyalash va ularning hisobi o'rtasidagi farqlarni qisqartirishga oid tavsiyalar berilgan. Shuningdek, xorij tajribasidan foydalangan holda asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** asosiy vositalar hisobi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, soliq hisobi, dastlabki qiymat, haqqoniy qiymat, asosiy vositalar amortizatsiyasi.

**Abstract:** This article highlights the differences between fixed asset accounting and tax accounting under international and national law, as well as the differences between national accounting standards for fixed assets and international financial reporting standards. Moreover, the article provides recommendations on unifying the accounting of fixed assets and reducing the differences between their accounting. In addition, the author has developed proposals and recommendations on improving fixed asset accounting in reliance upon foreign experience.

**Key words:** fixed asset accounting, national accounting standards, international financial reporting standards, tax accounting, initial value, fair value, depreciation of fixed assets.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются различия между бухгалтерским и налоговым учетом основных инструментов в соответствии с международным и национальным законодательством, а также между национальными стандартами бухгалтерского учета и международными стандартами финансовой отчетности в части учета основных средств. В то же время, в статье даны рекомендации по унификации учета основных средств и сокращению различий между налоговым и бухгалтерским учетом. Также приведены предложения и рекомендации по совершенствованию учета основных средств с использованием зарубежного опыта.

**Ключевые слова:** учет основных средств, национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности, налоговый учет, первоначальная стоимость, справедливая стоимость, износ основных средств.

## KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizning iqtisodiyot va moliya sohalarida olib borilayotgan islohotlarda xorijiy investorlar mablag'larini jalb qilish va yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlari faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, shu jumladan, buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, haqqoniy, ishonchli va umume'tirof etilgan standartlar asosida tayyorlangan axborot iqtisodiyotga o'z mablag'i bilan kirib kelayotgan investorga moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, faoliyat turidan qat'iy nazar, asosiy vositalar har qanday korxonalar va tashkilotlarning faoliyat yuritishi uchun mustahkam asos va moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi muhim ma'lumot bo'lib hisoblanadi. Shunday ekan, korxonaning real moliyaviy ahvoli tahlil qilish uchun asosiy vositalar hisobini to'g'ri yuritish lozim.

Shu bois, asosiy vositalar hisobini to'g'ri yuritish, uning kirimi, faoliyatdagi hisobi hamda chiqimi bilan bog'liq jarayonlarni hisobda to'liq va o'z vaqtida aks ettirish hamda asosiy vositalar qiymati to'g'risidagi ishonchli axborotlar bilan tashqi va ichki foydalanuvchilarni ta'minlash muhim hisoblanadi. Bugungi kunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish jarayonining tezlashishi, qilingan tizimli islohotlar asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlarga muvofiq yuritilishini ta'minlashga xizmat qildi. Biroq ayni jarayonda asosiy vositalar hisobini buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritilishi bilan birga soliqqa tortish maqsasida yuritish masalasi ham dolzarblik kasb etadigan masalalardan biriga aylandi.



O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, amaliyotda asosiy vositalarni soliq solish maqsadlarida hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobni buxgalteriya hisobini milliy standartlardan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazishda asosiy vositalar qiymati o'rtasida tafovutlar kelib chiqmoqda. Bu esa, mazkur axborotdan foydalanuvchi manfaatdor taraflar, shu jumladan investorlar va soliq organlari uchun qator muammo va qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Shuning uchun, xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritish maqsadida asosiy vositani tan olish, uni kirim qilish, faoliyatdagi hisobini yuritish, amortizatsiya hisoblash, chiqim qilish hisobini yuritish bilan birga, soliq hisobi nuqtayi nazaridan ham yuqoridagilar hisobini yuritishi zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha tadqiqotlar mavjud bo'lib, aynan uning kirimi, amortizatsiyasi, baholanishi, chiqimi kabi masalalar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Adam Hayes va Margarit Jeyms o'z tadqiqotida asosiy vositalarni qayta baholash – bu kompaniyaning asosiy vositalari yoki asosiy vositalar guruhining adolatli bozor qiymatidagi har qanday jiddiy o'zgarishlarni hisobga olish uchun ularning balans qiymatini oshirish yoki kamaytirishni hisobga olish jarayoni ekanligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Mualliflar, asosiy vositalarni doimiy baholab turish muhim ekanligini ta'kidlashlari bugungi kun zamon talabidan ham muhim hisoblanadi. Chunki, asosiy vositalar qiymati bozor bahosiga, haqqoniy qiymatga yaqin qiymatda hisobda aks ettirilmasligi, korxonada moliyaviy tomonini boshqarish, tannarxni shakllantirish va boshqa ko'plab holatlarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shu bilan birga, boshqa bir manbada qayta baholashning asosiy maqsadi mamlakatda investitsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratish ekanligi, biroq, investitsiya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlar, qayta baholash davrida investitsiya faolligi kuzatilmaganligi ko'rsatganligini ta'kidlaydi. Investitsiyalar yangi qurilishga emas, balki mavjud korxonalarni texnik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilishga yo'naltirilganligi, qayta baholash natijasi asosan asosiy vositalar qiymatining oshishi ta'sir qilganligini e'tirof etadi<sup>2</sup>.

Bundan esa, asosiy vositalar qiymatini baholash hisobiga oshishidan kompaniya rahbarlari xotirjamlikka berilmasliklari lozimligi kelib chiqadi. Bu shunchaki, asosiy vosita qiymatini bozor bahosiga yaqinlashtirish hisobiga ekanligini tushunish kerak.

Marinning fikricha, asosiy vositalarni qayta baholash, ya'ni adolatli qiymatni aniqlash uning moliyaviy holati va samaradorligi to'g'risida adolatli tasavvurni ta'minlash talab qilinadi. Soliq solish maqsadida, daromad solig'ini hisoblashda chegirib tashlanadigan harajatlar qatoriga faqat zaxiralarning amortizatsiyasi bilan bog'liq bo'lganlari, ular soliqqa tortiladigan daromad sifatida qaralishi sharti bilan qabul qilinadi. Daromad solig'ini hisoblash, binolarga soliqlarni belgilash, moddiy boyliklarni qayta baholash va ayniqsa, binolarni qayta baholash fiskal ta'sirni o'z ichiga olganligi sababli, katta ehtiyotkorlik va professionallik bilan yondashish kerak<sup>3</sup>.

Albatta ushbu muallif, aynan asosiy vositani qayta baholashda soliq munosabatlarini ham esdan chiqarilmaslik lozimligini ta'kidlab, buni ham hisobga olish lozimligini keltirib o'tadi.

Ushbu fikrning davomi sifatida Telegina asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha tadbirning natijasi tashkilot faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qayta baholashdan so'ng mahsulot tannarxiga kiritilgan amortizatsiya ajratmalari ko'payishi mumkin va shu bilan soliqqa tortiladigan daromad solig'i bazasi kamayadi deya e'tirof etadi<sup>4</sup>.

Mahalliy olimlardan K.Xomitov tomonidan mashina va uskunalarni baholashning o'ziga xosligi mavjudligi tufayli mashina va asbob-uskunalar qiymatini baholashning umum qabul qilingan uslubiyotini ishlab chiqish zaruriyat ekanligini ta'kidlagan<sup>5</sup>.

Z.Mamatov va S.Salohiddinovlar korxonada asosiy vositalarini qayta baholab borishni doimiy tashkil etishni, qayta baholash barcha aktiv sifatida tan olingan asosiy vositalar bo'yicha o'tkazilishini, asosiy vosita obyektlarini qayta baholash kunidagi haqiqiy qiymat bo'yicha qayta baholashni tavsiya etishadi<sup>6</sup>.

1 Adam Hayes, Margaret James. How to Account for Changes in the Market Value of Various Fixed Assets. May 16, 2021. <https://www.investopedia.com/ask/answers/041615/how-do-you-account-changes-market-value-various-fixed-assets.asp#:~:text=Revaluation%20of%20a%20fixed%20asset,in%20their%20fair%20market%20value>

2 Куликова Лидия Ивановна. История проведения переоценок основных средств в России: накопленный опыт, результаты и сюрпризы. История эволюции развития учета, анализа и аудита. № 1 / 2016. Стр. 129-141.

3 Marin Ciomag. Accounting and taxation of the tangible fixed assets' revaluation. Annals of the "Constantin Brâncuși" University of Târgu Jiu, Economy Series, Issue 2/2012.

4 Телегина Т.О. Влияние процедуры переоценки основных средств на дальнейшее функционирование предприятия. ЖУРНАЛ: АЛЛЕЯ НАУКИ. Учредители: ИП Шелистов Денис Александрович (Издательский центр "Quantum"). eISSN: 2587-6244. Том: 11/Номер: 11 (27) Год: 2018 Страницы: 532-537

5 Xomitov K. Mashina va uskunalarni qiymatini baholashga uslubiy yondashuv // Moliya. 1/2018.

6 Mamatov Z, S. Salohiddinov. // МСФО: совершенствование учета основных средств. Бизнес-эксперт. 5/2017. Б-60-65.



Ushbu mualliflarning fikrlari ham asosiy vositalarni qayta baholash jarayonini ifodalashi bilan ahamiyatli bo'lsa-da, ular tomonidan qo'llanilgan jumla munozarali. Ya'ni, mualliflar, barcha "aktiv sifatida tan olingan asosiy vositalar" bo'yicha o'tkazilishini ta'kidlab o'tishadi. Aslida, aktiv sifatida tan olinmagan asosiy vositalar mavjud bo'lmaydi. Biror obyekt asosiy vosita tarkibiga kiritilar ekan, albatta u aktiv mezoniga javob berishi kerak.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda davomida taqqoslama tahlil, guruhlash, qiyoslash, abstrakt mantiqiy fikrlash va baholash kabi usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, asosiy vositalar qiymati va uning baholanishi nafaqat buxgalteriya hisobi, balki soliqqa tortish nuqtayi nazaridan ham muhim hisoblanadi hamda alohida, qiyoslab o'rganishni taqozo etadi.

Asosiy vositalar hisobini yuritishdagi asosiy tafovutlarni 3 xil turga bo'lish mumkin:

- asosiy vositalar boshlang'ich qiymatni belgilashdagi tafovutlar;
- qayta baholash qiymatini aniqlashdagi tafovutlar;
- amortizatsiya hisoblashdagi tafovutlar.

Moliyaviy hisob hamda soliq hisobi bo'yicha asosiy vositalarni hisobidagi asosiy farqlar quyida jadvalda keltirilgan.

**1-jadval: BHMS va MHHSga ko'ra asosiy vositalarning xisobini yuritishda moliyaviy hamda soliq hisoblari o'rtasidagi farqlar to'g'risida ma'lumot**

Qadrsizlanishga tekshirish	Qadrsizlanishga tekshirish amalga oshirilmaydi	Tashkilot har moliyaviy yil yakunida qadrsizlanishga tekshirishi va qadrsizlanishdan ko'rilgan zararni tan olishi kerak	Qadrsizlanish bo'yicha xarajatlarni chegirib tashlanadigan xarajat sifatida tan olinmaydi.
Asosiy vositaning chiqib ketishi (realizatsiya qilinishi)	Realizatsiya qilingandan so'ng asosiy vosita hisobdan chiqariladi.	Sotish qarori qabul qilingandan so'ng maxsus hisobvarag'iga o'tkaziladi. Aktivga eskirish hisoblanmaydi.	Nazarda tutilmagan.
Foydali xizmat muddati korxonadan qaytadan ko'rib chiqilishi	Asosiy vositalar holatini yaxshilaydigan va xizmat muddatini uzaytiradigan xarajatlar amalga oshirilganida foydali xizmat muddati korxonadan qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin.	Foydali xizmat muddati korxonadan har moliyaviy yil yakunida qayta ko'rib chiqiladi.	Nazarda tutilmagan.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini shakllantirishda amortizatsiya hisoblash usuli va qadrsizlanishga tekshirishlar o'tkazishda sezilarli farqlar mavjud.

Biroq, sezilarli farqlar bilan bir qatorda, xalqaro va milliy standartlar asosiy vositalarni hisobga olish, xususan, obyektning foydalanish muddatini belgilashda o'xshash mezonlarga ega.

Asosiy vositangning foydali xizmat muddati deganda korxonadan aktivdan foydalanadigan xizmat davri tushuniladi. Bundan kelib chiqsak, foydali xizmat muddati asosiy vositangning amortizatsiyasini hisoblashdagi asosiy mezonlaridan biridir.

Ikkala (BHMS va MHXS) standartga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyekt kirim qilingan asosiy vositalarning foydali xizmat muddatini quyida keltirilgan omillarni hisobga olgan holda mustaqil belgilashi mumkin:

- aktivdan foydalanish muddati;
- kutilayotgan jismoniy va ma'naviy eskirish;
- obyektidan foydalanish bo'yicha tartibga soluvchi cheklovlar (obyekt pasporti, ijara shartnoma shartlari va boshqalar).



Asosiy vositalarni baholash usullarining nomuvofiqligiga alohida e'tibor qaratish lozim chunki ular yordamida asosiy kapital miqdori aniqlanadi va amortizatsiya to'lovlari hisoblab chiqiladi. Shuningdek asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi.

Asosiy vositalarni obyektiv baholash investorlarning investitsiya jozibadorligi va ularning tavakkalchilik darajasi xaqidagi qaroriga ham ta'sir qiladi.

Asosiy vositalarni qiymatini baholashga oid buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan normalarni tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya to'g'risida"gi Qonuni<sup>7</sup> va Buxgalteriya hisobining milliy standarti 5-sonli BHMSga<sup>8</sup> (ro'yxat raqami 1299-son, 2004 yil 20 yanvar) ko'ra asosiy vositalar boshlang'ich (qayta tiklanish) qiymat bo'yicha hisobga olinadi.

- boshlang'ich qiymat – asosiy vositalarni yaratish yoki xarid qilish bo'yicha qilingan xarajatlarning qiymati;
- joriy qiymat – ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlar bo'yicha asosiy vositalarning qiymati;
- qoldiq (balans) qiymat – jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati;
- tugatish qiymati – asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning kutilayotgan summasi.

36-son MHXSga asosan xo'jalik yurutuvchi subyekt har yili aktivlarni qadrsizlanishga tekshirib turishi lozim. Buxgalteriya hisobining milliy standartlarida esa bu talab mavjud emas.

"Asosiy vositalar" Buxgalteriya hisobining milliy standartiga (5-son BHMSga) asosan ham asosiy vositalarni qayta baholash mumkin. Asosiy vositalar indeksatsiya yo'li bilan yoki rasmiy tasdiqlangan bozor narxlar bo'yicha bevosita qaytadan hisob-kitob qilish orqali qayta baholanadi.

Asosiy vositalardan foydalanish jarayonida jismonan va ma'naviy eskirishi mumkin. Shu sababli korxonalar asosiy vositani qiymatini xarajatlarga o'tkazib boradi va bu jarayon amortizatsiya deb ataladi<sup>9</sup>.

O'z o'rnida hisoblangan amortizatsiya qiymati to'g'ridan to'g'ri mahsulot tannarxiga, narx belgilashga, mol-mulki bo'yicha soliq summasini hisoblashga, foyda soligini hisoblab chiqishga hamda korxonani moliyaviy holatini ko'rsatuvchi moliyaviy ko'rsatkichlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra amortizatsiya bir tomondan amortizatsiya qilinayotgan aktivni eskirishi natijasida uning qiymatini bosqichma bosqich pasayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa asosiy vositani yaratish uchun sarflangan pul qiymatini tezda tiklash imkonini beradi va yanada yangi texnologiya sotib olish imkonini yaratadi.

16-son MHXSga asosan asosiy vositalarni eskirishi bu asosiy vositalarni eskirish hisoblanadigan qiymatini uning foydali xizmat muddati davomida tizimli asosda xarajatlarga yoki mahsulot qiymatiga olib borishni angalatadi. 5-sonli BHMSga asosan esa amortizatsiyalanadigan qiymat butun foydali xizmat muddati mobaynida subyekt xarajatlariga amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida tizimli taqsimlanib borilishi sifatida ko'riladi.

Asosiy vositalar amortizatsiyasini hisoblashdagi tafovutlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Asosiy vositalar amortizatsiyasini hisoblashdagi tafovutlar to'g'risidagi ma'lumot

Farqli jihatlar	Moliyaviy hisob		Soliq hisobi
	BHMSga ko'ra	MHXS ko'ra	
Amortizatsiyani hisoblash mohiyati	Asosiy vositalar qiymati amortizatsiya hisoblash yo'li bilan qoplanadi.		Nazarda tutilmagan
Amortizatsiya qilinadigan obyekt	a) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar); b) mahsuldor chorva mollari; d) axborot-kutubxona fondi; tashqari barcha asosiy vositalar	Asosiy vositalarning barcha obyektlari yer uchastkalaridan tashqari	Soliq kodeksining 306-moddasida keltirib o'tilgan.

7 O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/2931253>

8 "Asosiy vositalar" O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS). Manba: <https://lex.uz/docs/821041>

9 Бубновская Т. В., Ермакова А. О., Камнева Д. А. Сравнительный анализ стандартов РСБУ и МСФО в области оценки и учета основных средств // Карельский научный журнал. – 2017. – Т. 6. – №. 4 (21). – С. 168-171.



Farqli jihatlar	Moliyaviy hisob		Soliq hisobi
	BHMSga ko'ra	MHXS ko'ra	
Tugatish qiymati	Asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning kutilayotgan summasi	Chiqib ketish sanasiga baholangan qiymat	Nazarda tutilmagan
Amortizatsiya hisoblash bazasi	To'liq boshlang'ich qiymat.	Likvidatsiya qiymatini chegirib tashlagan holda amortizatsiya qilinadi.	To'liq boshlang'ich qiymat
Amortizatsiya hisoblash usuli	Amortizatsiyani bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash;		Amortizatsiya normalari qo'llanilgan holda to'g'ri chiziqli hisoblash usuli.
Amortizatsiya hisoblash sanasi	Qabul qilingan oydan keyingi oynning dastlabki sanasidan boshlanadi.	Foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan paytdan boshlanadi.	Foydalanishga topshirilgan sanadan e'tiboran boshlanadi.
Amortizatsiya hisoblashni to'xtatish	Obyektning amortizatsiyalanadigan qiymati to'liq qoplangan yoki ushbu obyekt balansdan hisobdan chiqarilgan oydan keyingi oynning dastlabki sanasida to'xtatiladi. Konservatsiyalashga o'tkazilgan asosiy vositalarga nisbatan	5-son MHXSga muvofiq sotish uchun mo'ljallangan (yoki sotish uchun mo'ljallangan hisobdan chiqariladigan guruh tarkibidagi) aktiv sifatida tasniflangan sana. Aktiv sifatida tan olish bekor qilingan sana.	Nazarda tutilmagan
Amortizatsiya hisoblash to'xtatilmaydi	Asosiy vositalarni foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya ajratmalarini hisoblash to'xtatilmaydi	Aktiv bekor turib qolganda yoki faol foydalanishdan chiqarilganda	Asosiy vositalarni foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya ajratmalarini hisoblash to'xtatilmaydi
Amortizatsiya parametrlarini o'zgartirish va qayta ko'rib chiqish	O'zgarmaydi	Vaqt va vaqti bilan tekshirib turiladi va o'zgartirish imkoni mavjud	O'zgarmaydi
Cheklovlar	Minimal miqdor bo'yicha cheklovni borligi	Minimal miqdor bo'yicha cheklov mavjud emas	Asosiy vosita sifatida e'tirof etilgan sanadagi qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari (cheklov mavjud)

Yuqoridagi jadval asosida shuni ko'rishimiz mumkinki, asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisobga olishda sezilarli farqlar mavjudligi kuzatiladi. Shunga qaramasdan, xalqaro amaliyotda amortizatsiya to'lovlarini hisoblash usullari milliy standart bo'yicha hisoblash usuliga mos keladi. Bu usullar to'g'ri chiziqli usul, tezlashtirilgan amortizatsiya usuli, mahsulot va ishlar xajmiga mutanosib ravishda tannarxni hisobdan chiqarish usulini qamrab oladi.

Ma'lumki, korxonaning iqtisodiy faoliyati davomida asosiy vositalar uch bosqichdan: buxgalteriya hisobiga qabul qilish (tan olish), foydalanish va hisobdan chiqarish bosqichlardan o'tadi.

Milliy hamda xalqaro hisobda ham asosiy vositalarni chiqib ketishi ham o'xshash hollarda amalga oshiriladi, ya'ni asosiy vositalar sotish yoki eskirish natijasida foydalanishdan chiqarish, likvidatsiya qilish, boshqa tashkilotlar hisobiga ustav shaklida o'tkazish yoki tekinga berib yuborish orqali hisobdan chiqariladi.

Biroq, asosiy vositalarni chiqib ketishidan olinadigan daromad va xarajatlar har xil metodlar asosida amalga oshiriladi.

Milliy buxgalteriya hisobida asosiy vositalar chiqib ketishidan olingan daromadlar va xarajatlar ular tegishli bo'lgan davrda hisobda aks ettiriladi va boshqa daromad va xarajatlar sifatida foyda va zararlar hisobotida aks ettiriladi.



Asosiy vositalar obyektni sotishdan olingan natija deb obyektni sotishdan olingan sof tushum va uning balans qiymati o'rtasidagi farq hisoblanadi. Asosiy vositalarni chiqib ketishidan sof tushum esa obyektni sotishdan olingan tushum va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar o'rtasidagi farq hisoblanadi.

MHXSda asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan yuzaga kelgan foyda yoki zarar asosiy vosita obyekti hisobdan chiqarilganida foyda yoki zarar tarkibida aks ettirilishi kerak (bunda 17-son MHXSda sotish va qayta ijaraga olish bo'yicha boshqa talablar belgilanmagan bo'lsa). Ko'rilgan foyda asosiy faoliyatdan daromad sifatida tasniflanmasligi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlildan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

*Birinchidan*, MHXS va BHMSda asosiy vositalar hisobi ko'p jihatdan farq qiladi. Ba'zi konsepsiyalar esa muhim jihatlarga ega va moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalar qiymatini haqqoniy hisobga olishda sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

*Ikkinchidan*, 16-son MHXS korxonaning asosiy vositalar bo'yicha moslashuvchan hisob siyosatini ishlab chiqishga hamda asosiy kapitalni yangilash bo'yicha strategiyasini mustaqil ishlab chiqishiga imkon beradi.

*Uchinchidan*, MHXSni qo'llash orqali mikromiqyosda korxonalar va tashkilotlar faoliyati shaffofligini oshirsa, mamlakat miqyosda esa investitsiya muhitini yaxshilaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-son).
2. Manba: <https://lex.uz/docs/2931253>
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan). Manba: <https://lex.uz/docs/4674902>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/4147294>
5. "Asosiy vositalar" O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS), ro'yxat raqami 1299-son, 2004-yil 20-yanvar. Manba: <https://lex.uz/docs/555806>
6. IFRS 36 "Impairment of assets"
7. Manba: <https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/publications/pdf-standards/english/2023/issued/part-a/ias-36-impairment-of-assets.pdf>
8. IAS 16 "Property, Plant and Equipment"
9. Manba: <https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/publications/pdf-standards/english/2023/issued/part-a/ias-16-property-plant-and-equipment.pdf>
10. E.F. Brigham, M. C. Ehrhardt, Financial management: Theory & practice. – Cengage Learning, 2016.
11. F.I. Lessambo Financial Statements //Analysis and Reporting. – 2018.
12. C. Prasanna, Financial Management–Theory and Practice, 2016.
13. R. Higgins, Analysis for Financial Management, 12th International ed. – 2018.
14. М.Ю.Гинзбург, А. А.Федоров "К проблеме определения рентабельности основных средств организации" // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. – 2014. – №. 1-1 (1). – С. 327-332.
15. Н.А. Соловьева, Е. А. Медведева, Анализ основных средств и эффективности их использования. – 2006.
16. Бабаев Ю.А., Петров А.М. Методологические подходы к переоценке основных средств и отражению ее результатов в финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности.
17. Пятов М. Л., Смирнова И. А. Модели оценки основных средств после признания, определяемые МСФО (IAS) 16 //БУХ. 1С: Интернет-ресурс для бухгалтеров.-Режим доступа: <https://buh. ru/articles/documents/14236>. – 2013.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

